

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA TILLARNING YO'QOLIB BORISHI MUAMMOSI

Fayzullayeva Mashxura Yoqubjon qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

fayzullayevamashxura7@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada globalizatsiya sharoitida tillarning yo'qolishi muammosi tahlil qilinadi. Kichik tillarning yo'qolishining sabablari va oqibatlari, shu jumladan madaniy identifikatsiya, tarixiy xotira va ijtimoiy tajribaga ta'siri ko'rib chiqiladi. Raqamli vositalar, ta'lim siyosati, jamoatchilik tashabbuslari va xalqaro hamkorlik orqali tillarni saqlash va rivojlantirish bo'yicha yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Tilning yo'qolishi, globalizatsiya, madaniy identifikatsiya, kichik tillar, raqamli vositalar, ta'lim, saqlash

Abstract: The article discusses the problem of language loss in the context of globalization. It analyzes the causes and consequences of the disappearance of minority languages, including the impact on cultural identity, historical memory, and social experience. Solutions such as digital tools, educational policies, community initiatives, and international cooperation are proposed to preserve and promote endangered languages.

Key words: Language loss, globalization, cultural identity, minority languages, digital tools, education, preservation

Аннотация: Статья рассматривает проблему исчезновения языков в условиях глобализации. Анализируются причины и последствия утраты малых языков, включая влияние на культурную идентичность, историческую память и социальный опыт. Предлагаются решения, такие как использование цифровых инструментов, образовательная политика, инициативы сообществ и международное сотрудничество для сохранения и продвижения находящихся под угрозой языков.

Ключевые слова: Утрата языка, глобализация, культурная идентичность, малые языки, цифровые инструменты, образование, сохранение

Kirish. "Globalizatsiya" atamasi inglizcha "global" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "umumjahon" yoki "butun dunyo miqyosida" degan ma'noni bildiradi [5, 2-b]. So'nggi yillarda globalizatsiya jarayonlari iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va texnologiya sohalarida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon tilshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki global tillarning keng qo'llanilishi mahalliy va kichik tillarning yo'qolish xavfini kuchaytirmoqda. Shuning uchun globalizatsiya sharoitida tillarning yo'qolib borishi muammosi nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonining tilga ta'siri, kichik tillarning yo'qolish sabablari va ularni saqlashning imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Til-nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniy identifikatsiya, etnik o'zlik, kognitiv dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, uning yo'qolishi bilan xalqning madaniy merosi, tarixiy xotirasi va ijtimoiy tajribasi ham yo'qolish xavfi ostida qoladi [3, 1-b]. Globalizatsiya jarayonida keng qo'llanilayotgan universal tillar, masalan ingliz tili, kichik tillarning kundalik hayotdagi mavqeini

pasaytirib, ularning ishlatilish doirasini cheklamoqda. Shu sababli, ko'plab etnik guruhlar va mahalliy jamoalar o'z ona tillarini yo'qotish xavfi bilan yuzlashmoqda. Til yo'qolishi nafaqat lingvistik muammo, balki xalqning tarixiy va madaniy boyliklarini saqlashga tahdid soluvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun globalizatsiya sharoitida tilni saqlash va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb va zarur masala sifatida qaraladi.

Globalizatsiya jarayonida esa tilning ijtimoiy funksiyalari ba'zan yangilashakl oladi: chet tillar orqali ilm-texnika, biznes, ta'lim ma'lumotlari olinishi-tilning instrumental (praktik) funksiyasini yuqoriga ko'taradi; axborot almashinuvida tilning integrativ (aloqa) funksiyasi kengayadi [2, 2-b]. Shu bilan birga, global kommunikatsiya va texnologiyalarning rivojlanishi mahalliy tillarning kundalik hayotdagi ishlatilish doirasini sezilarli darajada kamaytirmoqda. Yosh avlod orasida ona tiliga bo'lgan qiziqish pasayib, ular ko'proq global tillar orqali bilim olishga va muloqot qilishga odatlanmoqda. Natijada, til nafaqat amaliy kommunikatsiya vositasi sifatida, balki xalqning madaniy identifikatsiyasi, etnik o'zligi va tarixiy xotirasi bilan bog'liq bo'lgan asosiy omil sifatida kamayib boradi. Kichik tillarning yo'qolishi bilan birga, xalqning madaniy merosi, an'analari va ijtimoiy tajribasi ham xavf ostida qoladi. Shu sababli, globalizatsiya sharoitida tillarning yo'qolish xavfini kamaytirish va ularni saqlash, rivojlantirish choralari ko'rish dolzarb vazifa hisoblanadi, chunki tilning madaniy, tarixiy va ijtimoiy funksiyalari kelajak avlodga yetkazilishi kerak.

Tilning yo'qolishi ko'pincha faqat so'zlarning yo'qolishini anglatmaydi; bu marosimlar, og'zaki tarixlar va mahalliy bilim tizimlarining asta-sekin yo'qolishini bildiradi [4, 3-b]. Har bir til o'ziga xos dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tartibni ifodalaydi, shuning uchun til yo'qolsa, bu xalqning madaniy merosi va tarixiy xotirasi bilan bog'liq noyob boyliklarning ham yo'qolishiga olib keladi. Shuningdek, shaxslar o'z ona tiliga kira olmagan hollarda, ular identifikatsiya chalkashligi yoki madaniy beqarorlik holatini boshdan kechirishi mumkin [4, 3-b]. Bu holat nafaqat tilni, balki insonning ichki dunyosi va o'zligini saqlash imkoniyatini ham xavf ostiga qo'yadi. Globalizatsiya sharoitida keng qo'llanilayotgan universal tillar, masalan ingliz tili yoki boshqa global tillar, ko'plab kichik tillarning kundalik hayotdagi mavqeini pasaytirib, yosh avlod orasida ona tiliga bo'lgan qiziqishni kamaytirmoqda. Natijada, tilning yo'qolishi nafaqat lingvistik muammo, balki xalqning madaniy identifikatsiyasi, an'analari, og'zaki merosi va ilmiy-ma'naviy tajribasini yo'qotish xavfini ham oshiradi. Shu sababli, globalizatsiya sharoitida ona tillarni saqlash, ularni rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish bo'yicha tizimli choralar ko'rish dolzarb va muhim vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat tilning o'zini, balki xalqning butun madaniy va tarixiy merosini asrashga xizmat qiladi, shuningdek, kelajak avlodning o'z o'zligini, madaniy boyligini va kognitiv dunyoqarashini to'liq saqlab qolish imkonini yaratadi.

Globalizatsiya sharoitida kichik tillarning yo'qolishi muammosiga yechim sifatida raqamli texnologiyalar va zamonaviy vositalardan foydalanish mumkin. Masalan, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar tilni saqlash va rivojlantirishda kuchli vositalarga aylangan, bu esa yosh avlod uchun til o'rganish va uni boshqalar bilan bo'lishishni osonlashtiradi [1]. Shu orqali kichik tillarda kontent yaratish, elektron darsliklar tayyorlash, onlayn kurslar va videolar orqali ona tilini o'rgatish mumkin bo'ladi. Bunday yechim yoshlar orasida tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi, ona tilining amaliy qo'llanilishini rag'batlantiradi va uning madaniy meros sifatidagi ahamiyatini saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli vositalar global kommunikatsiya jarayonida

kichik tillarning yo'qolish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa. Globalizatsiya jarayonida tillarning yo'qolishi nafaqat lingvistik muammo, balki xalqning madaniy merosi, tarixiy xotirasi va ijtimoiy identifikatsiyasiga tahdid soluvchi jiddiy masala hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish uchun raqamli texnologiyalar, maktab va davlat siyosati, jamoatchilik tashabbuslari va xalqaro hamkorlikdan samarali foydalanish lozim. Tilni saqlash va rivojlantirish choralarini joriy etish yosh avlod orasida tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi, madaniy boyliklarni kelajak avlodga yetkazadi va globalizatsiya sharoitida kichik tillarning jonligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hinton, L., & Hale, K. (Eds.). (2001). *The green book of language revitalization in practice*. Academic Press.
2. Jakbarova, N. A. (2025). Globalizatsiya jarayonida tillarning ijtimoiy funksiyasi: Ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy tahlil. *Ilmiy Tadqiqotlar va Ularning Yechimlari* Jurnali.
<https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4997/5431>
3. Sultanova, D. (2025). Globalizatsiya sharoitida jahon tillarning integratsiyasi va yo'qolish xavfi. In *Central Asian Journal of Education and Innovation* (Vol. 4, No. 6, pp. 5–8). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15613839> Tillar yo'qolishi va madaniy identifikatsiya globalizatsiya sharoitida. (2025). *Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi*, 3(8), 134–140. <https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/13551>
4. Zokir o'g'li, K., Khudoyberdiyev, R., & Hakimjonov, O. M. (2025). Globalizatsiya va milliy o'zlik muammosi. *Global Science Review*, 6(1), 159–163.